



## Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi



### Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 522.7 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi. Bu 2017yilning mos davriga nisbatan 19.9%ga o'sishni ta'minladi.

#### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi


2018 yil yanvar-sentabr oylari (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Qashqadaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1 522.7</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2501.0
Qurilish	1873.2
Savdo	1669.3
Tashish va saqlash	2208.6
Axborot va aloqa	1705.2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2452.4
Ta'lim	1176.5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	937.6
Boshqa faoliyat turlari	1403.6



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida **2501,3** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **163,9.0** %), Guzor tumanida **2330,9** ming so'mni (**152,9** %) va Qarshi shahrida **1676,1** ming so'mni (**110,0** %) tashkil etgan bo'lsa, Qarshi tumanida **1009,1** ming so'mni (**66.0** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqi. (shahar va tumanlar kesimida)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **456.3 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.